



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 14 - aprel

VI-54-68-7-104-K/22

Toyloq tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil I-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-25-moddalari, O'zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 126-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi ma'suliyatini oshirish to'g'risida"gi PQ-3042-son qarori 5-bandi, tuman hokimining birinchi o'rinbosari J.Xo'jamurodovning 2022-yil 13-apreldagi 01-02/40-sonli xatiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining ellik to'rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil I-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan mablag'lari hisobidan ilovaga muvofiq tadbirlarni amalga oshirish uchun 2 355,7 (ikki milliard uch yuz ellik besh million etti yuz) ming so'm ajratilsin.

2. Tuman hokimligi va tashkilotlar rahbarlari ajratilgan mablag'lardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli foydalanilishini, xususan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat'iy amal qilinishini ta'minlasin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (A.Sharipov)ga budjetga tegishli o'zgartirish kiritish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (B.Kubaev)ga belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish, tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Qurbonov) ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilib borish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Xo'jamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengashi Raisi



B.Babonazarov

Xalq deputatlari Toyloq tuman
Kengashining
2022 yil 14 apreldagi
VI-54-68-7-104-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman budjetining 2022 yil I-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdori

T/R	Mablag‘ ajratiladigan tashkilotlar va hududlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori (mln.so‘m)
	JAMI		2 355,7
1	“Ayollar daftari” jamg‘armasiga	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 apreldagi 213-F-sonli farmoyishi hamda 2021-yil 8-yanvardagi 2-sonli va 2021-yil 11-martdagi 132-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida	360,3
2	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 apreldagi 213-F-sonli farmoyishi hamda 2021-yil 8-yanvardagi 2-sonli va 2021-yil 11-martdagi 132-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida	360,3
3	“Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 apreldagi 213-F-sonli farmoyishi hamda 2021-yil 8-yanvardagi 2-sonli va 2021-yil 11-martdagi 132-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida	360,3
4	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi QQ-213-IV-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida	720,6
5	Tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 15-16 aprel kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari bilan o‘tkazilgan yig‘ilishida bergan topshiriqlari bo‘yicha 20-sonli bayonining 25-bandiga asosan tuman hokimligi xodimlariga ustama to‘lash uchun.	335,0

6	Tuman hokimligiga	tuman hokimligi xizmat avtomashinalari ta'mirlash uchun.	12,0
7	Tuman hokimligiga	Eskijuma MFYda tashkil etilayotgan "Yoshlar va sanoat zonasi" uchun Samarqand viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi tomonidan berilishi lozim bo'gan xulosa olish uchun	6,0
8	Tuman hokimligiga	Tuman hokimligi katta majlislar zalini kimyoviy tozalash yaroqsiz holga kelgan mebel jixozlarini ta'mirlash hamda yoritish chiroqlarini almashtirish uchun.	6,2
9	Tuman hokimligiga	Davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron E-qaror.gov.uz tizimining abonent to'lovi uchun	9,0
10	Tuman hokimligiga	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom tuhmush tarzini keng tadbqiq etish va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan sportning Muay-tay turi bo'yicha Prokuror kubogi musobaqasini o'tkazish uchun	5,0
11	Tuman hokimligi moliya bo'limiga	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 15-16 aprel kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari bilan o'tkazilgan yig'ilishida bergan topshiriqlari bo'yicha 20-sonli bayonining 25-bandiga asosan tuman hokimligi moliya bo'limi xodimlariga ustama to'lash uchun	81,0
12	Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga	Samarqand viloyat hokimining 2022 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi "2022-2026 yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-172-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 133-7-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi "Obod qishloq" dasturiga kiritilgan MFYlarning ichki yo'llariga shag'al yotqizish ishlari uchun yoqilg'i xarajatlariga	100,0